



## BACHADONDAGI CHANDIQNING HOLATINI BAHOLASH

**Xasanova Dilafruz Abduxamidovna**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi assistenti, Samarqand, O'zbekiston  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8353980>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> September 2023

Accepted: 17<sup>th</sup> September 2023

Online: 18<sup>th</sup> September 2023

### KEY WORDS

Ikkilamchi bepustlik, jarrohlik amaliyoti, bachadon chandig'i, gisteroskopiya, Nisha simptomi.

### ABSTRACT

*Maqolada bachadonda turli jarrohlik amaliyotlaridan keyin chandig'i bo'lgan ayollarda reproduktiv tizim holatini baholash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot maqsadi turli bachadondagi jarrohlik aralashuvidan keyingi chandiq holatini baholashning zamonaviy usullarini solishtirish edi. Tadqiqot uchun ajratib olingan ayollar 50 nafarni tashkil qilib, ularning anamnezida bachadondagi jarrohlik amaliyotidan keyin ikkilamchi bepustlik tashxisi qo'yilgan.*

**Dolzarbli.** Zamonaviy akusherlik va ginekologiyada bachadon patologiyalari soni yildan yilga oshmoqda. Nafaqat patologiya balki tug'ruqlarning jarrohlik yo'li bilan olib borilishi soni ham oshishi bachadondagi chandiq muammosini va uning oqibati bilan bo'lgan munozarali savollarni keltirib chiqarmoqda. 2000 yilga kelib ko'plab olimlarning tadqiqotlari miometriyani tiklash yagona biologik qonunlarga muvofiq davom etishi va quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga olganligi tasdiqlandi: birinchisi - travmatik yallig'lanish; ikkinchisi - granulyatsiya (biriktiruvchi) to'qimalarning neoplazmasi va epiteliyning yangilanishi; uchinchi - chandiqning shakllanishi va qayta tuzilishi [1, 5, 9, 14, 17, 20]. Ular orasida qat'iy chegaralar yo'q va vaqt o'tishi bilan ular bir-birini qisman qoplashi mumkin. Yuqoridagi bosqichlar yaraning turiga bog'liq bo'lmagan holda universaldir.

2019 yilda bir guruh mualliflar tadqiqotini nashr etishdi, uning maqsadi miometriyning mahalliy noziklashuvining ta'riflari, o'lchovlari va tasnifi bo'yicha mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish edi [3, 6, 10, 17, 19]. Tadqiqotda 20 nafar yetakchi ekspert ishtirok etdi. Natijada 79 ta bahsli masala bo'yicha konsensusga erishildi. Mutaxassislarning ko'pchiligi (83%) "tokcha" atamasiga rozi bo'lib, "tokcha" kamida 2 mm chuqurlikdagi KK dan keyin chandiq joyidagi chuqurlik sifatida belgilanishi kerak degan qarorga kelishdi. Shunday qilib, bugungi kunga kelib, chandiqning tuzilishidagi o'zgarishlarni uning mahalliy noziklashuvi shaklida tavsiflovchi ko'plab atamalar mavjud.

**Tadqiqot maqsadi.** Turli bachadondagi jarrohlik aralashuvidan keyingi chandiq holatini baholashning zamonaviy usullarini solishtirish.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Tadqiqot SamDTU ko'p tarmoqli klinikasining ginekologiya bo'limida 2022 yil davomida o'tkazildi. Tadqiqot uchun ajratib olingan ayollar 50



nafarni tashkil qilib, ularning anamnezida bachadondagi jarrohlik amaliyotidan keyin ikkilamchi bepustlik tashxisi qo'yilgan. Bemorlarning eng yoshi 23 yoshda bo'lib, eng kata yosh 39 edi. Shunday bo'lsada asosiy qismini 30 yoshdan katta ayollar tashkil qildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi  $31,5 \pm 4,38$  yil edi.

Laboratoriya tekshiruvlar umumiy qon va siydik tahlili, biokimyoviy qon tahlilini va gormonal fonni o'rganish kabilarni o'z ichiga oldi. Qo'llanilgan instrumental usullar - ultratovush, gisterosalpingografiya va gisteroskopiya. Gisteroskopiya barcha bemorlarga umumiy og'riqsizlantirish ostida Karl Stors (Germaniya) apparati yordamida va gisterosalpingo grafiya umumiy qoidalarga muvofiq holda "Innova" xususiy klinikasida shartnoma asosida o'tkazildi.

Olingan barcha materiallar avtomatlashtirilgan statistik ishlovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalarini variatsion-statistik qayta ishlash "Statistica 6.0" dasturi yordamida asosiy variatsiya ko'rsatkichlarini aniqlash bilan amalga oshirildi: o'rtacha qiymatlar (M), o'rtacha xatolar (m), standart og'ish (p).

Olingan natijalarning ishonchliligi Student kriteriyasi yordamida aniqlandi. Ikkala o'rtacha qiymat o'rtasidagi farq, agar p-parametri 0,05 dan kam bo'lsa, muhim hisoblanadi. Ishonchlilik darajasi kamida 95% ni tashkil etdi.

**Tadqiqot natijalari.** Bemorlarning shikoyatlarini analiz qilganda, barcha bemorlarda (100%) ikkilamchi bepustlik mavjud edi. Ikkilamchi bepustlikni davomiyligi turlicha bo'lib (1 yildan 9 yilgacha), o'rtacha  $4,5 \pm 1,03$  yilni tashkil qildi. Bemorlarning qolgan shikoyatlari hayz siklining buzilishi 24%, hayzning davomiyligini ortishi 20%, qorinning pastki qismida og'riq 50%, qindan turli ajralmalar kelishi 60% kabilarni tashkil qilishdi.

Tekshiruv vaqtida anamnezdagi homiladorlik sonining o'rtacha qiymati  $1,61 \pm 0,66$  edi. Tug'ruqlar soni 74 taga teng bo'lib, tabiiy tug'ruq yo'li orqali tug'ruq kuzatilgan ayollar 78% bo'lib deyarli kesarcha kesish bilan bir xil ko'rsatkicha ega edi (70%). Abortlar soni 13 ga teng edi (1-jadval). Bemorlarda abortlar soni 13 ta bo'lib, bundan bir marta abort qilganlar 8 nafar (61,5%), ikki marta abort qilganlar 4 nafarni (30,8%), 3 marta abort qilgan ayol 1 nafarni (7,7%) tashkil qildi. Abort sabablari homila rivojlanishdan to'xtashi, homilaning tug'ma nuqsonlari, antenatal o'lim holati bilan bog'liq edi.

## 1-jadval

### Tekshirilayotgan ayollarning akusherlik anamnezi

No	Ko'rsatkichlar	n	(%)
1	Abortlar soni	13	26%
2	Tabiiy yo'llar orqali tug'ruqlar soni	39	78%
3	KK operatsiyasi soni	35	70%
4	Bachadondan tashqari homiladorlik	1	2%
5	Antenatal o'lim	2	4%

Bemorlarning 26 nafarida (52%) bachadonida faqat bitta chandiqlik bor edi ( $p > 0,05$ ). Faqat bitta bemorda 3 ta chandiqlik (2 ta kesarcha kesish amaliyoti 1 ta miomektomiya), qolgan 23 nafarida (46%) esa 2 ta chandiqlik qayd etilgan.

O'rtacha ayollarda bachadon uzunligi  $43,74 \pm 1,68$  mmni, oldingi-orqa o'lchami  $44,18 \pm 1,39$  mmni, kengligi  $40,48 \pm 2,24$  mmni tashkil qildi. Deyarli barcha ayollarda (83,3%)



bachadon konturlari tekis edi. Miometriyning o'rtacha qalinligi  $11,6 \pm 1,37$  mmni tashkil qildi, 6,67% da uning tarkibida o'zgarishlar qayd etildi. Endometriyning o'rtacha qalinligi (UTT hayzning 11-12-kunlariga o'tkazilgan),  $10,25 \pm 2,01$  mmni tashkil qildi, 60% ayollarda giperexogen, qolganlarida esa exogenligi pasaygan edi. Tuzilishiga ko'ra donador shaklda edi. Bachadon bo'shlig'i 24% ayollarda kengaygan edi. Chandiq sohasiga baho berilganda 48% holda chandiq sohasi bo'ylab o'zgarishlar qayd etildi, o'choqli o'zgarish ya'ni yupqalashish faqatgina 28% ayollarda aniq aniqlandi.

Gisterosalpingografiyada 20% ayollarda bachadon naylarida o'tkazuvchanlik buzilishi aniqlangan. "Tokcha" simptomini ushbu tekshirish usulida aniqlash qiyin edi, lekin bachadon ichi patologiyalari (ya'ni ichki yuzaga qarab o'sib kirgan hosilalar) 30% da qayd etildi.

Gisteroskopiya natijalariga ko'ra aksariyat ayollarda bachadon bo'shlig'i patologiyasi va yod jismi aniqlangan. O'rganilgan ayollardan 74% bachadon ichida ipak tolali choklar aniqlangan va gisteroskopiya davomida ular olib tashlangan. Bundan tashqari o'rganilgan ayollarning barchasida chandiq sohasi deformatsiyasi kuzatilgan, chandiqning mahalliy yupqalashishi ya'ni "nisha" simptomi 80% aniqlangan. Uning ifodalanishiga ko'ra ushbu ayollarni ikki guruhga ajratish mumkin. Ya'ni "nisha" simptomi belgilari aniq ifodalangan ayollar -34% va mahalliy yupqalashishning belgilari mavjud lekin kuchli ifodalangan ayollar -66%. Bundan tashqari gisteroskopiya davomida endometriy mikropolipozi (58%), surunkali endometrit (24%), platsentar polip (4%), Asherman sindromi (8%), endometrioiz o'choqlari (10%) kabi patologiyalar ham aniqlangan.

**Xulosa.** Umumlashtirib aytganda, bachadonda chandiq sohasi o'zgarishlarini aniqlashda UTT 28% ni, gisteroskopiya esa 80% ni tashkil qildi, gisterosalpingografiya esa bu uchun deyarli samara bermadi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, gisteroskopiyaning tashxislash va davolash uchun qo'llanilishi uning eng katta afzalligidir. Bundan tashqari chandiq sohasi deformatsiyasini va "Nisha" simptomini aniqlashda u boshqa usullarga qaraganda ko'proq muqobil bo'ladi.

## References:

1. Ахтамова О. Ф. ANTIPHOSPHOLIPID SYNDROME AND MISCARRIAGE //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 4.
2. Алиева Д. А., Аскарлова З. З., Каримова Г. С. Значение гистероскопии в диагностике аномальных маточных кровотечений в перименопаузе //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 37 (121). – С. 20-26.
3. Касенова М. А. ОПТИМИЗАЦИЯ ОБСЛЕДОВАНИЯ БЕСПЛОДНЫХ ПАР СО ВТОРИЧНЫМ БЕСПЛОДИЕМ В АМБУЛАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ //АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ ТЕОРИИ, МЕТОДОЛОГИИ И ПРАКТИКИ НАУЧНОЙ. – 2022. – С. 80.
4. Курцер М. А. и др. Вторичное бесплодие, ассоциированное с нишей рубца на матке после кесарева сечения //Вопросы гинекологии, акушерства и перинатологии. – 2020. – Т. 19. – №. 5. – С. 95-101.
5. Тоджиева Н.И., Худоярова Д.Р., Базарова З.З. Совершенствование методов лечения гиперпластических процессов эндометрия в пременопаузе-Профессионал года. 2018. 81-84с



6. Туракулова И. Э., Худоярова Д. Р., Элтазарова Г. Ш. Оптимизация диагностики вторичного бесплодия //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 13 (54). – С. 72-74.
7. ХАСАНОВА Д. А. АУТОИММУННЫЙ ТИРЕОИДИТ: БЕРЕМЕННОСТЬ И РОДЫ //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 5.
8. Хасанова Д. ПРОБЛЕМА НЕ ВЫНАШИВАНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 175-179.
9. Шопулотова З. А., Зубайдиллоева З. Х. ПЕРИНАТАЛЬНАЯ НЕФРОЛОГИЯ: ПРОФИЛАКТИКА ОСЛОЖНЕНИЙ У БЕРЕМЕННЫХ С ХРОНИЧЕСКИМ ПИЕЛОНЕФРИТОМ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 79-82.
10. Abduhamidovna X. D. REVMATOID ARTRITI BO'LGAN HOMILADOR AYOLLARDA ANEMIYA //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.
11. Abdukhamidovna K. D. MANAGEMENT OF PREGNANT WOMEN WITH IDIOPATHIC THROMBOCYTOPENIC PURPLE //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 02. – С. 16-21.
12. Askarova F. K. The Negative Impact of Vitamin D and Other Micronutrient Deficiencies in Pregnant Women //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 380-382.
13. Iskandarovna T. N., Rakhimovna K. D. Risk factors for the development of endometrial hyperplastic processes in premenopause //Биомедицина ва амалиёт журнали. – с. 72.
14. Hasanova D. The governor is a woman who lives with the pain of the people //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2021. – Т. 3. – С. 57-58.
15. Fozilovna A. O., Raximovna X. D. Antiphospholipid syndrome and mission of pregnancy //umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat. – 2022. – Т. 1. – С. 13-15.
16. Kudratovna A. F. REALITIES OF THE TIME: IDIOPATHIC THROMBOCYTOPENIC PURPLE AND PREGNANCY //World Bulletin of Public Health. – 2022. – Т. 11. – С. 22-24.
17. Khasanova D. PREMENSTRUAL SYNDROME IN THE MODERN SCIENCE //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 16-22.
18. Khasanova D. A. Morphological Peculiarities Of The Spleen In Normality And With The Influence Of A Gene-Modified Product In Experiment //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 26-30.
19. Khasanova D. A. HISTOLOGICAL STRUCTURE OF THE RAT SPLEEN IN EARLY POSTNATAL ONTOGENESIS //Art of Medicine. International Medical Scientific Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 2.
20. Todjjeva N. I., ugli Shopulotov s. a. communication of pre-clampsia of severe degree and extrogenital diseases //Биомедицина ва амалиёт журнали. – с. 77.
21. Zafarjanovna K. F., Nuralieva S. N., Zafarjonovna A. Z. Features of the Morphological Structure of the Endometrium in Women of Reproductive Age with Abnormal Uterine Bleeding //Research Journal of Trauma and Disability Studies. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 258-262.